Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта
махсус таълим вазирлиги
Бухоро давлат университети

ТИЛ, АДАБИЁТ, ТАРЖИМА, АДАБИЙ ТАНҚИДЧИЛИК: ЗАМОНАВИЙ ЁНДАШУВЛАР ВА ИСТИҚБОЛЛАР

мавзусидаги халқаро илмий-амалий анжуман материаллари

ТЎПЛАМИ

Бухоро - 2022

ва биз они қабул қилдуқ ва асҳоб сори боқиб, дебдурларки, бу ул эрдурки, бизга онинг иси етиб эрди. Рўзгорнинг муқтадоси бўлғай ва Амир Саййид Кулолға буюрдиларки, фарзандим Баҳоуддин ҳақида тарбият ва шафқатни дариғ тутмағойсен.

Саййид Амир Кулол р. т.

Мазкур бўлғон Хожа Муҳаммад Бобонинг халифасидур. Ҳазрат Хожа Баҳоуддинға суҳбат нисбати тариқат сулуки, одоби таълими ва зикр талқини алардиндур. Бир кун азим мажмаъда Амир Саййид Кулол Хожа ҳазратин тилаб дедики, эй фарзанд Баҳоуддин, Хожа Муҳаммад Бобо нафаси васиятин сизнинг борингизда тамом бажой келтирдим деб. Дедиларки, ҳар не тарбия бобида бормен, сенинг ҳақингда кўргузубмен. Сен фарзанд Баҳоуддин бобида кўргизгил!

MA’NAVIY KAMOLOT SIRI

Qambarov Mirzobobir Bahodir o‘g‘li - Buxoro viloyat IIB Psixologik ta’minlash bo‘linmasi boshlig‘i

Inson dunyoga kelar ekan, umrining har bir sahifasida o’zining xulqi, atvori, ijobiy fazilatlari orqali ma’lum bitiklar qoldiradi. Bu bitiklarning naqadar qimmatli ekanligi ona xalqi, jonajon Vatani va atrofdagilarining u haqdagi fikrlari bilan o’lchanadi va insonning ma’naviy qiyofasini gavdalantiradi. Ushbu ma’naviy qiyofa asta-sekin yuksalib, kishini kamolot sari yetaklaydi va “komil inson” tushunchasi bilan qiyoslanadi. Xo’sh, komillik shaxsda qanday va qachondan paydo bo’la boshlaydi? Uning manbalari qayerda?

Ma’lumki, har bir inson dastavval ma’naviy tarbiyaning ilk bosqichini o’z oilasida egallaydi. Keyingi bosqichlari esa, maktabgacha ta’lim tashkiloti, umumiy o’rta ta’lim maktablari va ta’lim tizimining keyingi pog’onalarida davom ettiriladi. Inson kamoloti uchun eng muhim bo’lgan ilk bosqichda ta’lim va tarbiyaning sifati va samarali bo’lishi ma’nan va ruhan sog’lom avlodni voyaga yetishi bilan izohlanadi. Shu sababli kelajak davomchilari bo’lgan yosh avlodga bolalikdan intizomli bo’lish, ijobiy fazilatlar qurshovida voyaga yetish, o’zi qiziqib ardoqlagan kasbiy yo’nalish asosida ta’lim olish, o’z bilimini uzluksiz oshirib borish, o’zi uchun atrofdagi hayotiy voqea va hodisalardan tegishli xulosalar chiqarish kabi sifatlarni shakllantirish – hozirgi kunning eng dolzarb masalalaridan biri bo’lib hisoblanadi. Bu ishlar bolalarni kichik yoshdan kitoblar o’qishga qiziqtirish, ularni mutolaaga undash, kitoblar ichida yashiringan sirli tarbiya vositalari: xulosa chiqarish, qahramonlar hatti harakatini baholash, umumlashtirish kabi sifatlarni egallashga jalb qilish lozim. O’quvchilarning bo’sh vaqtini mazmunli sarflashga yo’naltirish ota-ona, pedagog va katta yoshlilar oldidagi muhim vazifa hisoblanadi.

Usbu maqsadni amalga oshirish barchaning oldiga o’ziga xos bo’lgan vazifalarni qo’yadi. Jumladan, bobo-buvi, ota-ona yoki ularning o’rnini bosuvchi shaxslar:

- Oilaviy muhitni salbiy ta’sirlardan xoli holda tashkil qilish, ya’ni uyda ichkiliklar, tamaki va boshqa zararli odatlarga yo’l bermaslik;
- Turli janjallarning oldini olish, baland ovozda qo’pol va haqoratomuz so’zlarni ishlatmaslik;
- Farzand uchun qulay ta’limiy-tarbiyaviy muhit yaratish;
- Farzandi ta’lim-tarbiya olayotgan ta’lim tashkilotlari bilan doimiy hamkorlikda bo’lish;
- O’z farzandi va oila a’zolariga odob yuzasidan munosabatda bo’lish;
- Mehr-muhabbat, ishonch, bir-birini qo’llab-quvvatlash kabi tuyg’ularini o’z namunasi orqali singdirish;

- Oilada quvonchli kayfiyat hukmronligi, mutolaa, kiyinish va so’zlashuv madaniyatini ta’minlash va boshqa qator vazifalarni amalga oshiririshi lozim.

Pedagoglar:

- Ta’lim muassasasida bolalar o’rtasida do’stona va ijobiy muhitni shakllantirish;
- Pedagogik faoliyatida **ta’limiy** (yangi ilmiy bilim va ma’lumotlarni berish), **tarbiyaviy** (jamiyat hayotiga xos odob-axloq qoidalari, umuminsoniy va milliy qadriyatlarni singdirish), **rivojlantiruvchi** (kreativ, tanqidiy fikrlash, ixtirochilik va ijodiy xarakteridagi g’oyalar ishlab chiqish uchun muhit yaratish) maqsadlarni to’g’ri rejalashtirish;
- O’quvchi-yoshlarni o’z iste’dodiga ko’ra rag’batlantirib, ular ruhiyati va xulqidagi kamchiliklarni psixokorreksion yo’llar orqali bartaraf etish;
- Ziddiyatlarning kelib chiqishini oldini olish yoki ularni pedagogik takt orqali oqilona hal etish;
- Yosh avlod tarbiyasi uchun muhim bo’lgan bola shaxsiga hurmat va e’tiborli bo’lish, ularga o’z farzandi kabi yondashish va boshqa vazifalarni muntazam amalga oshirib borishi zarur.

O’z iste’dodiga, o’z qobiliyatiga va o’z obro’siga ega bo’lgan inson hech qachon to’g’ri yo’ldan og’ishmaydi. Hayotda munosib o’rinni egallash uchun ushbu sifatlar yoshlikdan har bir jamiyat a’zolariga shakllantirilishi zarur. Chunki, o’zligini tanigan, bolalikdan ijobiy muhitda tarbiyalangan insongina yangi, ijobiy, bunyodkorlik, xayrli va ona xalqi manfaati uchun sof vijdon bilan faoliyat ko’rsata oladi va keng dunyoqarashga ega bo’ladi. Shunday ekan, xalqimiz orasida o’z qimmatiga ega bo’lgan “Har bir bolaga yetti mahalla ota-ona”, “Bola boshidan…”, “Qush uyasida ko’rganini qiladi” kabi xalq og’zaki ijodining bebaho namunalari va dono xalqimizning tarbiya borasidagi merosining ahamiyatini ko’rsatadi. Bu durdonalar orqali ma’naviy tarbiyaga azaldan e’tibor berilganligi va bu an’analar buyuk kelajak uchun ham muhim ahamiyat kasb etishi o’zining yaqqol isbotini topadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Sh.M.Mirziyoev. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent. “O‘zbekiston”. 2016 y
2. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni
3. I.A.Karimov. Yuksak ma’naviyat- yengilmas kuch.-T.:«Ma’naviyat», 2008 y

МУНДАРИЖА

Зарипов Ботир Комилович. Тил яшаса, миллат яшайди 3
Ҳамраев Мирали Мухаммеджанович. Кучли жамиятда кучли маънавият мужассам 4
Обиджон Хафизович Хамидов. Тил – миллат қиёфасининг бир бўлаги 5
Лутфия Мирзаева. Уч буюк қадрият: маънавият, маърифат, маданият.....6
Зиёда ҒАФФОРОВА. Навоий қаламида Бухоро ва бухороликлар талқини.....11
Qambarov Mirzobobir Bahodir o‘g‘li, MA’NAVIY KAMOLOT SIRI……..13

I ШЎЪБА. ХОРИЖИЙ ТИЛЛАРНИ ЎҚИТИШНИНГ ЗАМОНАВИЙ ЁНДАШУВЛАРИ ВА ИСТИҚБОЛЛАРИ. КОРПУС ЛИНГВИСТИКАСИ МАСАЛАЛАРИ. МЕДИАЛИНГВИСТИКА ВА ЛИНГВИСТИК ТАДҚИҚОТЛАР 15
Н.Б.Атабоев. СОСА МАНБАЛАРИДА МОРФОЛОГИК БИРЛИКЛАР ТАДҚИҚИ.....15
Haydarov Anvar Askarovich. FONOSTILISTIK TAKROR 16
Rasulov Zubaydullo Izomovich. AXBOROT-DISKURSIV TAHLIL ASOSLARI XUSUSIDA20
Jalilova Lola, Ergasheva Fatima. ADULTS` CHALLENGES IN ENGLISH LEARNING PROCESS.....21
Jalilova Lola, Sirojeva Kamila. TPR- ONE OF THE MOST SUCCESSFUL METHODS OF CHILD DEVELOPMENT 24
Rakhmatova Mekhriniso Musinovna. ACADEMIC INTEGRITY: DEVELOPING HOLISTIC UNIVERSITY APPROACH AND POLICY 27
Zaripov Gulmurot Tokhirovich, Boltayev Sunnat Bakhtiyor ogli, THE USE OF MODERN INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN FOREIGN LANGUAGE TEACHING AND ITS EFFECTIVENESS.....30
Rakhmatov Ahmad Pirmukhammadovich. FLIPPED LEARNING IN THE EDUCATIONAL PROCESS: ESSENCE, ADVANTAGES, LIMITATIONS 305
Nazarov Rustam Irkinovich. A MODERN METHOD TO TEACHING A FOREIGN LANGUAGE TO STUDENTS OF TECHNICAL HIGHER INSTITUTIONS 37
Nazarov Rustam Irkinovich. MOTIVATION TO STUDY FOREIGN LANGUAGES AMONG STUDENTS OF TECHNICAL UNIVERSITIES 41
Xudoyberdiyeva Gulasal Shuxratovna. "GARRI POTTER” ROMANLAR TO’PLAMIDA PSIXOLOGIYA.....43
Ro’ziyeva Nilufar, A.A.Haydarov. TILSHUNOSLIKDA FONOPRAGMATIK KONNOTATSIYA MASALALARI 46
N.A.Axmetova, G.A.Rahmonova. PIRLS – XALQARO BAHOLASH DASTURLARIGA TAYYORGARLIK: BOSHLANG’ICH SINF O’QUVCHILARIDA ONA TILI VA O’QISH SAVODXONLIGINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISH 47
Moxichexra Aliyeva. INTEGRATIVE PEDAGOGICAL THOUGHT IN THE ERA OF THE EASTERN RENEAISSANSE.....49
Ochilova Zulaykho Hasanovna. LEARNING LANGUAGE IS NEED OF TIME.....51
D.Sh. Qurbonova. TOPISHMOQLAR VOSITASIDA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING BOG`LANISHLI NUTQINI O’STIRISH 52
Aslanova Nozima Xakimovna, Narziyeva Mastura Sunnatovna. BOSHLANG’ICH SINF O’QUVCHILARIDA INFORMATSION MATNLAR TAHLILI ASOSIDA YANGI BILIMLARNI SHAKLLANTIRISH VA UNI O'Z TAJRIBASI BILAN BOG'LASH KO’NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH 56
Kadirova Zarina Bahodirovna. NEWSPAPER LANGUAGE AND METHOD 58
Rakhimova Zarina Uktamovna. THE LANGUAGE AND STYLE OF MASS MEDIA 60
Ахмедов Б.Я. РУССКИЙ ЯЗЫК КАК ИНОСТРАННЫЙ: ОБУЧЕНИЕ ЧТЕНИЮ 62
Абдуллаева Нилуфар. ПОЭТИК ЎЙИНДАН ФОНЕТИК ЎЙИНГА.....64
Safarova X.S. INGLIZ TILIDAGI FRANTSUZ O’ZLASHMA SO’ZLARINI ASSIMILYATSIYA QILISH TURLARI 66